

FALSAFIY SHOIR – RAUF PARFI

Ravshanova To'lg'anoy Sodiq qizi
Sharof Rashidov nomidagi SamDU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Rauf Parfi hayoti va ijodi tahlil etiladi. Shoirning adabiy merosi, poetik qarashlari hamda she'riyatidagi falsafiy va ma'naviy izlanishlar keng yoritilgan. Shuningdek, uning o'zbek she'riyatida erkin fikrlash, milliy uyg'onish va badiiy tasvirning yangilanishi yo'lidagi o'rni ko'rsatib beriladi. Maqolada Rauf Parfi ijodining o'ziga xos xususiyatlari, shoirning avlodlar tafakkuri va ma'naviy olamiga ta'siri ham ilmiy-nazariy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Rauf Parfi, zamonaviy o'zbek adabiyoti, she'riyat, poetika, milliy uyg'onish, badiiy tafakkur.

Rauf Parfi ijodi o'zbek she'riyatida yangi bosqich ochgan hodisalardan biridir. Uning she'rlari inson qalbinning eng nozik kechinmalari, erkinlikka intilish va milliy uyg'onish tuyg'ulari bilan sug'orilgan. Shoir ijodining bosh mavzulari — vatan, xalq, ozodlik, ishq va insoniylikdir.

Rauf Parfi dastlabki she'rlaridanoq o'ziga xos uslub, o'ychan ohang va ramziy ifoda bilan ajralib turgan. U so'z qudrati orqali nafaqat shaxsiy tuyg'ularini, balki butun millat dardini ham ifodalay oldi. Shoirning satrlarida insoniy iztiroblar, ruhiy kechinmalar, erkinlik va adolatga bo'lgan sog'inch teran poetik shaklda yoritiladi.

Uning "Tashvish", "So'nggi umid", "Ishq risolasi", "Avlodlar sadolari" kabi to'plamlari o'zbek she'riyati tarixida muhim o'rin tutadi. Bu asarlar orqali shoir millat qalbida uyg'onish, ozodlik va vatanparvarlik ruhini kuchaytirdi. Ayniqsa, "Ishq risolasi" kitobi sevgi va insoniy tuyg'ularni falsafiy mushohada bilan uyg'unlashtirgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Rauf Parfi ijodida milliy ruh bilan bir qatorda umuminsoniy g'oyalar ham keng ifodalangan. Uning she'rlari o'zbek adabiyotida ramziy fikrlash, badiiy teranlik va ruhiy samimiyat timsoli sifatida qadrlanadi. Shoir tarjimon sifatida ham faol ijod qildi. Turkiy xalqlar adabiyoti va jahon she'riyatidan qilgan tarjimalari orqali o'zbek kitobxonini boshqa xalqlarning adabiy merosi bilan tanishtirdi. Bu esa uning ijodini yanada boyitdi va xalqaro miqyosda qadrlanishiga sabab bo'ldi.

Yozuvchi Rauf Parfi bilan bog'liq xotiralarini esga olar ekan uni maktab davrlaridan bilishini uning she'rlarining har bir satrini ko'cha- kuyda bolalar bilan bir takrorlaganini eslaydi. Talabalik davrlarida esa men Rauf aka bilan tanishdim deydi. Usmon Azim "So'ngso'zlar" asarida Rauf Parfi haqida chuqur ehtirom bilan so'z yuritir ekan, uni "ko'nglimning to'ridagi eng aziz inson" deya ta'riflaydi. U Rauf Parfini birinchi ko'rganidayoq, uning siymosi "shoir" degan yuksak obrazga aynan mos tushganini his qilganini aytadi. Bu tasodif emasdi. Rauf Parfi she'riyatga go'yo birdaniga, bir ulkan shoir sifatida kirib keldi va bu maqomni umrining oxirigacha munosib saqlab qoldi.

Usmon Azim Rauf Parfini o'zbek she'riyati tarixida alohida o'rin egallagan siymo deb biladi. Uning ijodi o'zbek adabiyotining yangilanishida muhim burilish yasagan. Rauf Parfi o'z she'rlari orqali nafaqat badiiy-estetik mezonlarni boyitdi, balki she'riyatning intellektual salohiyatini oshirdi. U she'riyatni soddalik va yuzakilikdan, jaydarilikdan xalos etib, uni zamonaviy, falsafiy-ruhiy darajaga olib chiqdi. Rauf Parfining hayoti, Usmon Azim ta'biricha, Mashrabning hayotiga o'xshar edi. U ham ana shunday beg'ubor, samimiy, qalbi pok inson edi. Har qanday inson bilan iliq muomala qilar, odamlarning izzatini joyiga qo'yar edi. Uning shaxsiyati ham, ijodi ham orasta, toza va pokiza edi.

Rauf Parfi nafaqat shoir, balki istiqlol fidoyisi edi. U O'zbekiston mustaqil bo'lishi kerak, degan g'oyani dadil ilgari surgan, xalqning orzu-umidlarini she'riyat tilida ifodalagan siymo edi. Uning she'riyati Vatan, erkinlik, inson qadr-qimmatini haqida balandparvoz emas, balki yurakdan chiqib, yuraklarga yetib boruvchi teran fikrlar bilan sug'orilgan edi. Usmon Azimning e'tiroficha, Rauf Parfi hayotining har bir lahzasi, har bir nafasida shoirlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat mujassam bo'lgan. Shuning uchun ham u adabiyotimizda o'chmas iz qoldirgan, yuraklarga muhr bo'lgan shoir sifatida yashaydi. Rauf Parfi she'riyatda nafaqat o'z ovozi topdi, balki butun bir avlodga ruhiy tayanch bo'la oldi. Uning she'rlari orqali yosh shoirlar o'z yo'lini anglab oldi, she'rning qanday bo'lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qildi.

Rauf Parfining nomi faqat she'riyat bilan emas, istiqlol ruhi bilan ham chambarchas bog'liq. Uning ijodi mustaqillikning ma'naviy poydevorlaridan biridir. U milliy uyg'onishning she'riy bayroqdorlaridan biri bo'lib qoldi. Bugun ham uning satrlarida or-nomus, haqiqat va erkka tashna qalblar o'zini topmoqda. Rauf Parfi – bu shunchaki shoir emas, u o'zbek adabiy tafakkurining yangi bosqichi, yuraklar tiliga aylangan siymodir. Uning ijodi vaqt o'tgan sayin qadrlanaveradi, u har doim zamondosh, har doim yurakdosh bo'lib qolaveradi. Rauf Parfi doimo erkinlikka intilgan, ruhi yech qachon tor doiralarga sig'magan ijodkor edi. U erkin bo'lishni, fikrda, ruhda, so'zda ozod bo'lishni hayotining mazmuni deb bilar edi. Ma'lum bir joyda yoki muhitda ortiqcha muddat qolib ketish, unga ko'ra, ichki qamoq bilan barobar edi. Tashqi tinchlik, barqarorlik emas, ichki ozodlik uning uchun haqiqat mezoni bo'lib xizmat qilgan. U yuragi doimo siljishga, parvozga, izlanishga tashna bo'lgan bir shoir edi. She'riyat Rauf Parfi uchun faqat mashg'ulot emas, balki yashashning o'zi edi. Undan boshqa har qanday faoliyat, har qanday mashg'ulot uning ko'z o'ngida nojo'ya, befoyda, hatto jiddiylikdan xoli bo'lib tuyulardi. U hayotda parvoz qilish uchun tug'ilgan qushga o'xshardi ozodliksiz, ilhom va ilohiy fikrsiz yashay olmaydigan, to'siqlarni toqat qila olmaydigan bir mavjudot edi. Uning butun borligi, butun umri shu ozodlik orzusi bilan sug'orilgan edi.

Rauf Parfi o'z zamondoshlari va adabiy do'stlariga ham doimo mehr bilan qarardi. U ko'plab ijodkorlarga bag'ishlovlar yozgan, o'z she'rlarida ularning nomlarini tilga olgan. Bu nafaqat do'stona hurmatning ifodasi, balki shoirning qalbida yashagan e'tirof va mehrning tabiiy shakli edi. Ammo vaqt o'tishi bilan, Parfi bu ismlarning hammasi har doim ham u she'rlarning yuksak ruhiga munosib emasligini anglab yetardi. Shuning uchun u she'r ostidagi ba'zi nomlarni o'chirib tashlar, faqat chin ma'noda oqlangan, she'r mazmuniga haqiqatdan ham mos tushganlarini saqlab qolar edi. Bu holat uning she'riyatdagi poklik va halollikka bo'lgan prinsipial munosabatini yaqqol ko'rsatib turardi. Rauf Parfi ijodi

shunchalik chuqurki, u nafaqat soʻz bilan, balki hayot tarzi bilan ham oʻzining qanday shoir ekanini isbotlab berdi. U oʻz yoʻlidan hech qachon qaytmadi. Ne toʻsiqlar, ne tanqidlar, ne siyosiy bosimlar uning fikr va eʼtiqodini oʻzgartira olmadi. Chunki u sheʼrni oddiy kasb emas, ilohiy bir xizmat, ichki haqiqatni izhor qilish deb bilgan. Uning sheʼrlarida yurak yurakka gapirar, fikr qalbga singar, or-nomus soʻzga aylanar edi. Shu sababdan ham Rauf Parfi doimiy parvoz holatidagi qushga oʻxshardi uni hech kim bir joyda tutib turolmas, hech qanday toʻsiq uni ruhiy balandlikdan pastga tushira olmasdi. Uning sheʼriy parvozi hanuz davom etmoqda har bir satrda, har bir misrada, bugun ham qalblarni erkinlikka, poklikka, haqiqatga chorlamoqda.

Rauf Parfi hayotida ham, ijodida ham hech qachon murosaga bormadi. U na amaldorlar bilan til topishishga urindi, na esa zamon talablariga moslashishga shoshildi. Chunki uning uchun eng oliy mezon vijdon edi. Vijdonga qarshi kelgan soʻz, hatto eng goʻzali boʻlsa-da, u uchun qiymatsiz edi. Shuning uchun ham u baʼzan tanho qoldi, baʼzan eʼtibordan chetda boʻldi, ammo hech qachon oʻzini yoʻqotmadi. Chunki u haqiqat yoʻlini tanlagan edi bu yoʻl ogʻriqli boʻlsa-da, yuksak edi. Rauf Parfi ruhining yuksakligi har bir harakatida namoyon boʻlardi. U oddiy suhbatda ham, sahna ortida ham oʻziga xos oriyat bilan yashar, oʻz qadrini, soʻz qadrini bilgan holda yurardi. Bu oriyat koʻz-koʻz emas, balki ichdan kelgan bir tabiat edi. Har qanday shon-shuhrat, mansab, taʼrif unga begona edi. Unga faqatgina chin eʼtirof, rost baho kerak edi uni esa vaqt berdi, xalq berdi. Bugun biz Rauf Parfini faqat sheʼrlari bilan emas, balki yashagan hayoti bilan, tutgan yoʻli bilan eslaymiz. U yolgʻizlikdan choʻchimadi, muxolifatdan choʻkmadi. Har doim oʻzining ichki ovozigina, qalbidagi haqiqatga tayanib yashadi. Shuning uchun ham u oʻz zamonasidan oʻzib ketdi. Uning sheʼriyati hamisha zamon bilan emas, zamondan oldin yurdi. "Men oʻzingma maʼqul boʻlgan ijodkor birodarlarimni – aka- ukalarimni maqtashdan tolmaganman. Umuman, isteʼdodni tan olish juda chiroyli ish Bu asli adabiyotga – demak, xalqqa ishqibozlikdir. Bunday odamlarni uchratasam, juda quvonaman", – deydi yozuvchi [45; 315].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar.5-jild, Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashryoti, T., 1989, B-228.
2. A.Qahhor. Hayot hodisasidan badiiy toʻqimaga.- Adabiyotimiz avtobiografiyasi. T. B-196.
3. . Erkin Vohidov. Shoir Sheʼr-u shuur. "Yosh gvardiya" nashryoti. T., 1987-yil.B- 156.
4. Usmon Azim. Soʻngsoʻzlar. 2020.
5. Hamidulla Boltaboyev. Soʻz sehri. "Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashryoti. Toshkent. B-145.